



O'SMIRLAR RUHIY SALOMATLIGINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

A.Ostanaqulov

Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

O'smirlik, ya'ni o'tish yoshini turli olimlar turlicha chegaralaydilar. Ayrimlar 10-14 yoshni boshlanish yoshi, 14-18 o'rta, 18-20 ni o'tish yoshining yakuni deb hisoblaydilar. Zamonaviy tibbiyot esa organizmning anatomik-fiziologik o'zgarishlarining 7 yoshdan boshlanishini o'rganib chiqdilar. Shunga ko'ra, taqvim bo'yicha emas, aynan organizmdagi jinsiy o'zgarishlariga qarab o'tish yoshini belgilash lozim deb hisoblaydilar.

Organizm fiziologik o'zgarishining tezlashuvi natijasida bu yoshda bola o'zida hayajon, ko'tarinki kayfiyatda uyg'onish va ba'zan o'z-o'zini yerga urish hissini sezadi. Bu davrda bola o'ziga nisbatan ko'proq diqqat-e'tiborni talab qiladi. U o'zini katta odam deb hisoblaydi va shaxsiga nisbatan kattalardek munosabatni talab qiladi. Lekin maktabda, kollej yoki litseyda va uyda uning mavqei avvalgidek qolaveradi. Natijada bolada o'smir yoshi inqirozi boshlanadi. O'smirlik yoshi inqirozi emansipasiya, tengdoshlar bilan guruhlashish va xobbi reaksiyalarini keltirib chiqaradi.

Emansipatsiya reaksiyasi holatida bola kattalar nazoratidan chiqish va mustaqillikka erishishni xohlaydi, unda o'zining «men»i paydo bo'ladi. Kattalar tomonidan o'tkazilmoqchi bo'lgan kichkina ta'qib ham bolaning xulqining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tengdoshlar bilan guruhlashish bolada o'zaro harakat, jamoa tartibiga bo'ysinish, hurmatga ega bo'lish va o'z xohishidagi mavqega ega bo'lish qobiliyatlarini shakllaydi. Bolada o'z-o'zini baholash hususiyati o'sadi. U tengdoshlarining fikrlarini kattalarning tanqidiga nisbatan ko'proq qadrlaydi.

Xobbi – biror narsa bilan shug'ullanish juda katta ahamiyatga ega. Uning sharofati bilan bolada qiziqishlar va individual qobiliyatlar shakllanadi. Xobbinin turlari: intellektual-estetik, ya'ni musiqa, rasm, tarix, texnika; biror narsa yig'ish; eksentrik, ya'ni diqqat markazda turish uchun ekstravagant kiyimlarga qiziqish ko'rinishida bo'lishi mumkin.

O'smirlarning qiziqishlarini bilish, ular va kattalar orasidagi o'zaro tushunishlarni yaxshilaydi.

O'smir psixologiyasida paydo bo'ladigan yangi hissiyot bu – o'z-o'zini anglashdir. O'z-o'zini anglash, o'smir yoshining asosiy yakunidir. Bu paytda inson o'zining yangi «men»ini ochadi, kuchli va kuchsiz taraflarini o'rganishga harakat qiladi. O'zini boshqa odamlar bilan solishtira boshlaydi, o'ziga nisbatan qiziqish uyg'onadi, o'ziga mos do'st qidiradi.

Qoidaga ko'ra o'smirda o'qituvchi yoki ota-onaga nisbatan jamoaning bolaga bergan bahosi ko'proq ahamiyatga egadir. Bu yoshda bolada tashkilotchilik,



ishbilarmonlik va boshqa shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirishga yaxshigina sharoit yaratadi.

V.Suxomlinskiy asosiy shaxs xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydi.

1. Bir tomondan johillikka bo'ysunmaslik, uni emosional qabul qilmaslikning ikkinchi tomondan hayotdagi qiyin holatlarda hal qila olmaslik qobiliyati bilan uyg'unlashadi.

2. O'smir yaxshi bo'lishni xohlaydi, idealga intiladi, lekin uni to'g'ri tarbiyalashlari yoqmaydi.

3. O'smir shaxs bo'lishni xohlaydi. Qandaydir qahramonlik, romantik, noodatiy narsalarni qilishni istaydi. Jarayonga talabning borligi va o'zida ishonch hosil qilish xohishining mavjudligiga qaramay, o'smir hali bunga qanday erishishni bilmaydi.

4. O'smirda xohishning boyligi va kuchning chegaralanganligi qarama-qarshi qo'yilgan. Qiziqishlarning turli-tumanligi va doimiy emasligi mana shundan kelib chiqadi. O'smir o'zining qobiliyatli emasligini bilib qolishdan qo'rqadi. U o'zini juda yaxshi ko'radi va ortida yordamga muxtojligi yashiringan. Ko'rgazmali ishonchlilik va qat'iyat ortiga yashirinishi mumkin.

5. O'smirda romantik hissiyot va dag'al qiliqlar uyg'unlashgan. Go'zallikdan zavqlanadi va unga surunkali munosabatda bo'ladi. Lekin o'z hissiyotlaridan uyaladi. Bu tuyg'ularni yosh bolalarga xos deb hisoblaydi. U uni o'ta hissiyotli deb hisoblashlaridan qo'rqadi va dag'allik ortiga berkinadi. Jismoniy kuchning quyilib kelishi uni faoliyatga boshlaydi.

O'smirlar bilan ishlaganda ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini, bu yoshning asosiy psixologik yangilanishini inobatga olish zarur.

O'smir organizmi ham bu paytga kelib ancha o'zgarishlarga duch keladi: husnbuzarlar chiqadi, tanadan turli noxush hidlar kela boshlaydi. Shuning uchun ham tarbiyaviy soatlar o'tganda o'qituvchi albatta, shaxsiy gigiena haqida ham to'xtalib o'tishi lozim.

Bu yoshda bolada juda katta psixologik o'zgarishlar yuzaga keladi.

Birinchi galda bu yoshdagi bolalarda uyatchanlik va tezda hafa bo'lish kuzatiladi. U arzimagan narsalardan ham xafa bo'ladi va bunga katta ahamiyat beradi. U o'z tashqi ko'rinishidan uyaladi, harakatlari bukchaygan holatga keladi. Chunki, u hali o'z tanasini ilgarigidek boshqara olmaydi. Shunga o'xshab o'smir o'z hissiyotlarini ham jilovlay olmaydi. U o'zini katta odam deb hisoblaydi va atrofdagilardan ham shunga yarasha munosabatni talab qiladi.

Erkinlikni talab qilish ularda qo'rquv uyg'otadi. Deyarli barcha o'smirlar ota-onasi ularning erkinligini siqib qo'yganligidan shikoyat qiladilar. O'sayotgan bola o'z haq-huquqini talab qilishi tabiiydir, lekin ota-ona uning har bir talabini bajarishga majbur emas.

O'smirlar ustidan rahbarlik qilish zarur. Ko'pincha ularning ba'zilari ota-onalari ular bilan qat'iyatliroq bo'lishini xohlashadi. Bolani to'g'ri yo'lda uni o'qitayotgan qoidalar emas, sog'lom tarbiya va unga bo'lgan ishonch ushlab turadi. O'smirda esa



qoida ham, ota-onasining hayotdagi bo'shliqlarni to'ldiradigan bu qoidalarni o'rgatish uchun unga berayotgan e'tibori ham kerak. Ota-ona bilan bo'ladigan kelishmovchiliklar o'smir o'zini katta his qilib, ota-onasining o'rnini egallamoqchi bo'lganligi oqibatida yuzaga keladi. Albatta, ota-onaga bu yoqmaydi. Ota-ona va farzand o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'ladi. Ba'zida bu ota va qiz, ona va o'g'il o'rtasidagi ziddiyatlar ham bo'lishi mumkin. Otaga qiz, onaga esa o'g'il bola yaqinroq bo'ladi, deyishadi. Lekin, vaqt o'tgan sari, ya'ni balog'at yoshida bola buni unuta boshlaydi. Chunki, oiladan tashqaridagi boshqa odamlarga o'z his-tuyg'ularini yo'naltirgan bo'ladi. U ota-onaga bo'lgan munosabatini yo'qotishga harakat qila boshlaydi. Agar uyda o'smir yoshini hisobga olib, bola bilan o'zaro do'stona, yumshoq muomalada bo'linsa, sharoitga qarab farzandining xohish istaklarini inobatga olib ish ko'rilsa, farzandga shaxs sifatida qaralsa, u buni sezadi va yaxshi yo'ldan yurishga harakat qiladi. Aks holda o'smir ko'chadan o'ziga boshqa mashg'ulot topadi va yomon yo'lga yurib ketish ehtimoli katta bo'ladi.

Bizning mentalitetimizda, ayniqsa, qiz bolani faqat turmushga chiqishga tayyorlaymiz. Oqibatda qizlarimiz ham ayni o'qib, oila quradigan paytda turmushga chiqish va oilali bo'lishni o'ylay boshlaydilar.

Bizning ajdodlarimiz farzandlarini milliy qadriyatlarimizga asoslanib tarbiya qilganlar va natijada ular orasidan ko'pgina buyuk insonlar yetishib chiqqanligi sir emas.

O'smirlik davrini qiyin davr deymizu, lekin mana shu oraliqning paydo bo'lishi va sekin o'tishiga o'zimiz sababchi bo'lib qolayotganimizni sezmaymiz. Biz farzandlarimizga ozgina vaqt ajratib, ularning ko'ngliga yo'l topa olsak, ertaga jamiyatimizga foydasi tegadigan insonlarni tarbiyalab, kamolga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OR Parpiyeva, AD Ostonaqulov //Health theory// Международный научно-практический журнал "Форум молодых ученых". Вып №6 (34) 2019. 26-29 стр.
2. O.Parpiyeva, A.Ostonaqulov //Drugs to treat the psychological state of the patients and their methods// Международном научно-практическом журнале "Экономика и социум". Выпуск №1 (56) – 2019. 93-97 стр.
3. O.R.Parpiyeva, Ostonaqulov A.D //SCHIZOPHRENIA DISEASE// Международный научно-практический журнал "Теория и практика современной науки" Выпуск №6 (48) – 2019. 18-21 стр
4. O.R.Parpiyeva, Ostonaqulov A.D //Thoughts that do not go away from the brain// Международный научно-практический журнал "Мировая наука" Международное научное издание. Выпуск № 6 (27) – 2019. 9-12 стр.
5. Ostanakulov Alijon Dadajon ugli, Gulnora Ergasheva //THE STATE OF STUDYING THE PROBLEM OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE// Gospodarka i Innowacje. 33 (2023). 159-163.



6. Ostanakulov Alijon Dadajon ugli, Tojimatova Gavharoy Gulomjonovna //SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ORIGIN OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS// Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. Volume-10| Issue-12| 2022. 215-222 pages.

7. Ostanakulov Alijon Dadajon Ugli //THE HISTORY AND ROLE OF ISLAM AND PSYCHOLOGY IN THE EDUCATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA// *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. Volume 2, Issue 4. April, 2021. 279-277 pages.

8. Ostanakulov Alijon //SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR IN ADOLESCENCE// INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference. 27 th May, 2023. Chelyabinsk, Russia: "CESS", 2023. Part 19. 114-120 pages.

9. Ostanakulov Alijon. (2023). STUDY OF SUICIDAL CASES IN THE PERIOD OF ADOLESCENCE IN FOREIGN COUNTRIES. *Scientific Impulse*, 1(10), 636-641.

10. R.Nuriddinov, D.Mo'minov, & A.Ostanaqulov. (2023). BO'LAJAK PEDAGOGLAR RUHIY SALOMATLIGINI TAMINLASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 612-617.

11. D.Mo'minov, R.Nuriddinov, & A.Ostanaqulov. (2023). BADIY ASARLARDA PSIXOLOGIK MANIPULYATSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI (LEV TOLSTOYNING "TIRILISH" ASARI MISOLIDA). *Scientific Impulse*, 1(10), 618-624.

12. Ostanakulov Alijon Dadajon Ugli //THE HISTORY AND ROLE OF ISLAM AND PSYCHOLOGY IN THE EDUCATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA// *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. Volume 2, Issue 4. April, 2021. 279-277 pages.

13. Alijonov, N. (2022). IMPLEMENTING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF LEADERS IN THE FIELD OF EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 631-634.

14. Alijonov Nurbek, Saidova Nafisa Nematovna //MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA SENSOR TARAQQIYOT MUAMMOSI// Uzbek Scholar Journal. Volume- 04, May, 2022. 147-152.

15. NURIDDINOV, R. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR RUHIY SALOMATLIGINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(4), 59-62.

16. Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li//BO'LAJAK O'QITUVCHILAR RUHIY SALOMATLIGI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARINING O'RGANILISHI// Multidisciplinary Scientific Journal. 2 (7), 2023. 311-315.

17. Nuriddinov Rasuljon Samidjon o'g'li //OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA O'QUV MOTIV VA MOTIVATSIYALARINI NOMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI// Uzbek Scholar Journal. Volume-06, July, 2022. 1-5 pages.

18. Усмонов Шерзод Ахмаджонович, Закирова Мухаббат Сабировна, Нуриддинов Расулжон Самитжон ўғли //ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ//СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). № 9 (106), 2021. 12-16 стр.



19. НУРИДДИНОВ Р.С. //INFORMATION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM// ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОЦВЕТАНИЯ ОБЩЕСТВА. Екатеринбург-Фергана, 20 мая 2020 года. 380-382 стр.

20. Samitjonovich, Nuriddinov Rasuljon //SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DAILY LIFE OF CHILDREN// *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*. 1 (2020). 65-67 pages.

21. Odinakhan Rakhmanovna Parpieva, & Davlatov Hamidjon Dilshodjon ogli. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(11), 760-763.

22. Xalimaxon G'anieva, Tojimamatov Jamshidbek //CHARACTER ACTENTATION IN ADOLESCENTS// *International Journal for Innovative Engineering and Management Research* Volume 10, Issue 04, Pages: 153-157.

23. H.Ganieva //SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF SELF-CONSCIOUSNESS OF STUDENTS// *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH*. Vol. 2 No. 4 (2021) 190-193 pages.

24. Ғаниева Халимахон Ахматхоновна //The Study Of Socio-Psychological Problem Of Loneliness// *Turkish Journal of Computer and Mathematics education* Vol.12 No.12 (2021), 2580-2590

25. Ғаниева Халимахон Ахматхоновна //Талаба ёшларнинг ўз-ўзини англашини ижтимоий психологик механизмлари// *ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ*. 2021 йил 1/3, 46-49 бетлар.

26. G'aniyeva Xalimaxon Akhmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH* Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.

27. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 pages.

28. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna, Tojimamatov Jamshid //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS// *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 1053-1058 pages.

29. Ғаниева Халимахон Ахматхоновна, Ж.Тожимаматов //Ёшлар – янги Ўзбекистон, янги Ренессанс бунёдкорлари// “Ёшлар – янги Ўзбекистон, янги ренессанс бунёдкорлари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари 2021 йил, 321-323 бетлар.

30. G'aniyeva, X., & Ahmadjonov, N. (2023). KИCHИК МАКТАВ YOSHIGAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(5), 166-172.



31. Ахматхоновна Ганиева, Халимахон ., & Саидолимовна Закирова, Д. . (2022). ЎСМИРЛАРДА ХАРАКТЕР АКЦЕНТУАЦИЯСИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 548-553.

32. Khalimakhon Akhmadkhonovna Ganieva //PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 622-628 betlar.

33. Пулатова, Гулноза //Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism// *Общество и инновации* 2.6/S (2021): 200-204.

34. Pulatova, G.M. //WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY// *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества*. 2020.

35. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.

36. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG‘I BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 3), 48-58.